



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024-yil
yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-oktabrdagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-oktabr)

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi, % da

75,4



Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
7 821,0
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da

68,4




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-noyabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-oktabr)



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va tashkilotlar

(1-noyabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda



Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-oktabr)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi
(2024-yil yanvar-oktabr)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-oktabr)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	22700,4	100,0	110,5
Termiz sh.	4179,2	18,4	109,5
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	629,7	2,8	111,3
Angor	615,4	2,7	110,5
Bandixon	335,3	1,5	111,5
Boysun	465,9	2,1	112,6
Muzrabot	666,9	2,9	110,7
Denov	1921,9	8,5	111,8
Jarqo'rg'on	840,8	3,7	112,4
Qumqo'rg'on	893,3	3,9	109,2
Qiziriq	545,0	2,4	110,1
Sariosiyo	869,7	3,8	109,5
Termiz	722,7	3,2	113,1
Uzun	610,0	2,7	110,1
Sherobod	802,4	3,5	112,6
Sho'rchi	786,6	3,5	111,9

¹ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Termiz sh	20 506,5	106,3
Termiz	8 442,4	109,9
Denov	4 532,8	109,0
Qiziriq	4 356,5	107,7
Muzrabot	4 308,1	108,4
Angor	4 243,9	108,0
Bandixon	3 996,2	108,4
Sariosiyo	3 786,5	106,9
Sherobod	3 779,7	110,2
Boysun	3 712,1	110,2
Jarqo'rg'on	3 497,3	109,5
Qumqo'rg'on	3 465,2	106,5
Sho'rchi	3 409,6	109,1
Oltinsoy	3 239,0	108,5
Uzun	3 218,9	107,4

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,4** foizni, shu jumladan, **41,0** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	2 040,6	+22,6
Denov	1 201,6	+14,3
Jarqo'rg'on	633,1	+14,7
Sherobod	605,8	+12,8
Sariosiyo	596,0	+11,7
Sho'rchi	581,6	+13,0
Qumqo'rg'on	570,3	+10,7
Muzrabot	542,6	+12,0
Angor	503,9	+12,0
Oltinsoy	475,9	+13,3
Termiz	473,5	+13,1
Uzun	462,8	+11,9
Qiziriq	456,8	+11,6
Boysun	378,8	+13,5
Bandixon	283,8	+12,6

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi %da

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil yanvar-oktabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	22 700,4	100,0	110,5
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	894,3	3,9	116,3
Moliyaviy xizmatlar	3 057,4	13,5	104,9
Transport xizmatlari	2 502,4	11,0	110,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 208,4	9,7	111,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	6 330,5	27,9	108,8
Savdo xizmatlari	6 150,0	27,1	114,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	417,9	1,8	110,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	794,2	3,5	114,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	318,1	1,4	108,3
Ijara xizmatlari	290,1	1,3	105,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	507,6	2,2	111,3
Shaxsiy xizmatlar	541,6	2,4	109,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	215,2	1,0	91,9
Boshqa xizmatlar	681,1	3,0	111,5

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024-yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)

Termiz sh	1 418,7
Denov	433,2
Qumqo'rg'on	242,6
Sariosiyo	184,7
Jarqo'rg'on	115,7
Sho'rchi	103,9
Sherobod	102,4
Uzun	82,6
Muzrabot	70,5
Termiz	64,5
Angor	58,8
Oltinsoy	57,4
Qiziriq	46,0
Boysun	45,6
Bandixon	30,8

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024-yil yanvar-oktabr)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-oktabrida 95,2** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **46,4** foizni yoki **1 418,7** mlrd so'mni tashkil etdi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **86,9** foiz.


Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **416,5** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **107,5** foizni tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾



Hududlar kesimida transport xizmatlari ¹⁾

(2024-yil yanvar-oktabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi %da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr) ¹⁾

2024-yilning yanvar-oktabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 208,4** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **9,7 %** ni tashkil etdi.



Termiz sh	376,0	+14,7
Denov	234,1	+13,2
Sariosiyo	129,4	+8,5
Sherobod	128,3	+12,1
Jarqo'rg'on	127,0	+11,5
Qumqo'rg'on	125,1	+9,7
Sho'rchi	114,8	+11,0
Angor	101,3	+6,5
Uzun	100,1	+11,2
Qiziriq	99,5	+11,8
Termiz	98,5	+13,2
Muzrabot	97,2	+13,9
Oltinsoy	89,8	+5,7
Boysun	88,6	+13,3
Bandixon	61,8	+4,4

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024-yil yanvar-oktabr)



2024-yil yanvar-oktabr oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **88,3** foizga yetdi.


Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **68,4 %**.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)

2024-yil yanvar-oktabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining **73,5** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024-yil yanvar-oktabr)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	1025,6	+23,9
Denov	712,6	+13,9
Muzrabot	338,0	+10,2
Sherobod	331,2	+13,1
Sariosiyo	319,0	+9,9
Jarqo'rg'on	317,3	+12,9
Sho'rchi	311,4	+13,9
Qumqo'rg'on	295,8	+7,5
Angor	269,0	+11,7
Oltinsoy	265,5	+11,7
Qiziriq	256,0	+11,5
Termiz	253,8	+14,4
Uzun	248,8	+11,6
Boysun	185,6	+13,8
Bandixon	154,6	+13,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi %da


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-oktabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **75,2 %** ni tashkil etdi. **Termiz sh**



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda


O'sishi %da

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024-yil yanvar-oktabr)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	894,3	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	814,3	91,1
shu jumladan:		
Telekommunikatsiya xizmatlari	672,3	82,6
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	142,0	17,4
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	80,0	8,9
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa noshirlik xizmatlari	37,5	46,9
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	4,5	5,6
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,0	0,0
Boshqa axborot xizmatlari	38,0	47,5

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024-yil yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **82,7** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar ¹⁾

(2024-yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)

Termiz sh	342,8
Denov	144,6
Termiz	50,3
Sherobod	34,7
Sho'rchi	31,6
Jarqo'rg'on	20,8
Sariosiyo	17,2
Qumqo'rg'on	15,0
Uzun	14,2
Qiziriq	12,2
Angor	12,1
Oltinsoy	11,1
Boysun	9,2
Muzrabot	8,1
Bandixon	1,8

Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Termiz shahriga to'g'ri keladi. **2020-yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan mazkur hududda ushbu xizmat turi hajmi **173,5** mlrd so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **342,8** mlrd so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **43,2** foiziga yetdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024-yil yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **49,8 %** ni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **37,5 %** ni, shifokorlar amaliyoti va stoma-tologiya sohasidagi xizmatlar **12,7 %** ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)


Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi % da
Termiz sh	126,7	+8,7
Denov	20,3	+12,7
Boysun	14,7	+8,6
Sherobod	13,9	+10,6
Termiz	10,6	+11,6
Jarqo'rg'on	9,4	+9,2
Qumqo'rg'on	7,5	+10,8
Sho'rchi	7,0	+11,8
Sariosiyo	4,2	+11,7
Uzun	3,9	+11,5
Angor	3,6	+11,3
Qiziriq	3,2	+10,7
Oltinsoy	2,9	+12,0
Muzrabot	2,5	+11,4
Bandixon	1,3	+13,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda O'sishi % da


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,8** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


○ O'sishi %da

2024-yil yanvar-oktabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **27,9 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **96,8** foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-oktabr)




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ● O'sishi %da

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda + O'sishi %da

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **34,7** foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi %da
Termiz sh	61,1	+2,8
Denov	40,4	+9,8
Qumqo'rg'on	24,4	+11,3
Sariosiyo	24,3	+9,8
Jarqo'rg'on	23,8	+12,0
Sherobod	23,0	+10,2
Sho'rchi	22,9	+11,6
Angor	21,3	+11,5
Uzun	20,3	+10,4
Oltinsoy	19,9	+11,2
Muzrabot	18,6	+10,8
Qiziriq	17,5	+11,9
Termiz	16,1	+12,9
Boysun	16,0	+12,2
Bandixon	13,6	+12,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi %da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ¹⁾ (2024-yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)



2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **133,6** mlrd so'mga oshib, **215,2** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,4** foizni tashkil etdi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 76-225-65-91